



1. Matnni o'qing, mazmunini o'z so'zingiz bilan so'zlab bering.
2. Lug'at yordamida matnni tarjima qiling.
3. Yangi so'zlarni yod oling, ular ishtirokida gaplar tuzing.

2- DARS

▶ **3- mashq.** Savollarga javob bering.

— Toshkentning qaysi ko'chasida Turkiston saroyi va Alisher Navoiy nomli adabiyot muzeyi joylashgan?

—

— Shahrimizning Amir Temur ko'chasida qaysi bog' joylashgan?

—

— Milliy bog' qaysi maydonda joylashgan?

—

— Shahrimizdagi bog'larning nomini ayting.

—

— Maktabingiz atrofida qanday binolar bor?

—


▶ **3- topshiriq.** Matnni o'qing, berilgan rasmdan foydalanib, topshiriqlarni bajaring.

TOSHKENTLEND

Toshkentlend 1995-yil 2-iyulda tashkil etilgan. Toshkent shahri markazida, Bo'zsuv kanali qirg'og'ida joylashgan.

Toshkentlendda „Akva-park“, „Bolalar bog'i“, „Osma yo'l“ kabi majmualar mavjud.





Bu yerda turli attraksionlarda uchasiz, „Afrika safari“da o‘zingizni yovvoyi tabiat qo‘ynida his qilasiz. Suv havzalarida qayiqchada sayr qilib, suv attraksionlaridagi qiziqarli o‘yinlarda qatnashasiz. Do‘konlardan turli o‘yinchoqlar xarid qilasiz va yaxshi taassurotlar bilan uyga qaytasiz.

LUG‘AT

majmua — комплекс
yovvoyi — дикий
qirg‘oq — берег

tabiat — природа
qayiqcha — лодка
taassurot — впечатление



1. Matn mazmunini so‘zlab bering.
2. Matnни tarjima qiling.
3. Siz yana qanday istirohat bog‘larini bilasiz? Shu haqda kichik hikoya tuzing.

► **4- mashq.** Partadosh do‘stingiz bilan „Chet ellik sayyoh bilan suhbat“ mavzusida dialog tuzing.

N a m u n a :

— *Kechirasiz, Ko‘kaldosh madrasasiga qanday borish mumkin?*


— *Shu ko‘cha bo‘ylab to‘g‘riga yurasiz, chorrahadan o‘ngga burilasiz.*

—

YOZGI TA‘TIL

1- DARS

► **1- mashq.** Berilgan so‘z va so‘z birikmalarini qo‘llab, rasmlar mazmuniga mos gaplar tuzing.



Foydalanish uchun soʻzlar: *ta'til, reja, oromgoh, dam olish, sayr qilish, sayohatga chiqmoq, chiniqmoq, soya-salqin, cho'milmoq, baliq tutmoq, qiziqarli o'yinlar, do'stlashmoq.*

► **1- topshiriq.** Matnni o'qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

YOZGI TA'TIL

Yaqinda darslar tugaydi va ta'til boshlanadi. Sinf-doshlar bilan yozgi ta'til rejasini tuzdik. Ko'pchilik oromgohga borishni istaydi. Ba'zi bolalar tarixiy shaharlarga sayohatga boradilar. Ba'zilar ota-onalari bilan dam olish maskanlarida hordiq chiqaradilar.

„Kamalak“ oromgohi soya-salqin yerga joylashgan. Oromgoh atrofi tog'lar bilan o'ralgan. Bu yerda ko'p bolalar bilan do'stlashamiz. Toza havoda chiniqamiz. Oromgohda hech qachon zerikmaymiz.

LUG'AT

yaqinda — скоро, на днях
ta'til — каникулы
reja — план
ko'pchilik — большинство
oromgoh — лагерь

istamoq — хотеть, желать
soya-salqin — прохладно
hordiq chiqarmoq — отдыхать
chiniqmoq — закаляться



1. Siz yozda qayerda dam olmoqchisiz?
2. Ta'tilda ko'pchilik qayerga boradi?
3. Sayohatga kimlar bilan borasiz?
4. Qaysi oromgoh sizga yoqadi?
5. Oromgohda nimalar qilmoqchisiz?

BILIB OLING!

Ish-harakatning boshqalar tomonidan bajarilishi, ya'ni III shaxs ko'plik **-lar**, **-dilar**, **-sinlar** qo'shimchalari bilan ifodalanadi.

Qarang: *Ular oromgohga ketdilar. Barcha bolalar musobaqada qatnashsinlar.*

► **2-mashq.** Gaplarni o'qing, **-dilar**, **-sinlar** qo'shimchalarini olgan so'zlarni topib, daftaringizga ko'chiring va ona tilingizga tarjima qiling.

1. Yozda do'stlarim oromgohga bordilar.
2. Boshqalar sizga yordam bersinlarmi?
3. Bu yerda bolalar do'stlashadilar, birga o'ynaydilar.
4. Sinfdozlarim kelsinlar, keyin mashinaga chiqamiz.
5. Bolalar daryo bo'yida uchrashadilar.

MUOMALA ODOBI

Marhamat!
Oq yo'!
Yaxshi boringlar.
Yaxshi dam olinglar.
Xush kelibsiz!
Ko'rishguncha xayr!

► **3-mashq.** Nuqtalar o'rniga **-dilar**, **-sinlar** qo'shimchalaridan mosini qo'yib, gaplarni o'qing va dialogni davom ettiring.

1. — Sinfdozlaringiz ta'tilda qayerga bora...?
—
- U yerga yana kimlar bora...?

- Ustozlar ham ...
- 2. — Guruh rahbarlari oromgohda nima qila...?
- ...
- Murabbiylar tennis, shashka o'ynashni o'rgata...mi?
- ...
- ...

► **2-topshiriq.** Rasm asosida o'zaro suhbatlashing va **-dilar, -sinlar** qo'shimchalarini qo'llab, kichik hikoya tuzing.



2- DARS

SUHBAT

- Nodira, ta'tilda qayerga borasan?
- Buvimlarnikiga boraman. Ular menga ko'p narsani o'rgatadilar.
- Jasur, o'zing nima qilmoqchisan?
- Men oromgohga bormoqchiman. Qarindoshlarim ham men bilan birga borishadi.

- Ota-onalari rozi bo‘ladilarmi?
- Albatta-da. Amakim, „hammalari bir joyda dam olsinlar, do‘stlashsinlar“ dedilar.
- Juda yaxshi, Jasur. Yaxshi dam olinglar.
- Rahmat, Nodira. Sen ham maroqli dam olgin.

► **4-mashq.** Matnni o‘qing, III shaxs ko‘plik qo‘shimchalarini to‘g‘ri talaffuz qiling. Ajratilgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzib, daftaringizga ko‘chiring.

OROMGOHDA

Yozgi ta‘tilda oromgohlar gavjum bo‘ladi. Ta‘tildan oldin oromgohlarni ta‘mirlaydilar. Bolalar uchun **o‘yingohlar** quradilar. Bu o‘yingohlarda turli **musobaqalar** bo‘ladi. Barcha bolalar shinam xonalarda hordiq chiqaradilar. **Oshpazlar** shirin taomlar pishiradilar, mevalardan mazali sharbatlar tayyorlaydilar. Murabbiylar she‘r **o‘rgatadilar**, hikoyalar aytib beradilar.

Oromgohda bolalar **tartib-intizomga** rioya qiladilar. Bu ishda navbatchilar yordam beradilar.

LUG‘AT

gavjum – многолюдный
ta‘mirlamoq – отремонтировать
o‘yingoh – стадион
tartib – порядок
rioya qilmoq – соблюдать

O‘ZBEKCHA-TURKMANCHA LUG‘AT

A

ahamiyat — ähmiyet
ahil — agzybir
ajdodlar — ata-babalar, eždatlar
ajratilgan — bölüp aýrylan,
tapawutlandyrylan
andava — laý kepjesi
anhor — derýajyk
anjom — enjam
asalari — bal arysy
asar — eser
avval — öñ, ilki
ayvon — eýwan, dalan

B

badantarbiya — bedenterbiýe
barobar — barabar
bastakor — kompozitor
bayram — baýram
bemaza — tagamsyz
bemor — syrkaw, hassa
betoqatlik — sabysyzlyk
beg‘ubor — arassa, dury
birinchi — birinji
bir dona — bir sany
bir mahal — bir ýola, bir gezek
bormoq — barmak
bola ochmoq — jüýje çykarmak
boy, boylik — baý, baýlyk
buklamoq — eplemek
bukmoq — egreltmek
burkamoq — örtmek, dolamak
bo‘yamoq — boýamak, reñklemek

D

daha — massiw
dahliz — koridor
dahshat — gorky, wehim
dam olmoq — dynç almak
darvoza — derweze
daryo — derýa
dastro‘mol — elýaglyk
dasturxon — saçak
dastyor — kömekçi
davolamoq — bejermek
davr — döwür
dazmollamoq — ütüklemek
devor urish — diwar gurmak
doim — hemişe, mydama
duo — doga okama, pata berme
duradgor — agaç ussasy

E

ehiyot qilmoq — goramak, gorap
saklamak
ekin — ekiş
ekmoq — ekmek
el — il, halk, adamlar
eritmoq — eretmek
erta — ir
eslab qolmoq — ýatda saklamak
esmoq — öwürmek
etak — fartuk

F

farzand — çaga, perzent
favvora — çüwdürim
foйда keltirish — peýda getirmek
foydali — peýdaly



G

gapirmoq — geplemek
garmdori — burç
guldasta — çemen
guldon — güldan
gulzor — gülzar
go‘zal — gözəl,
owadan

H

halok bo‘lmoq — heläk bolmak
halol — halal
hamshira — şepagat uýasy
har kuni — her gün
har oyda — her aý, her aýda,
aýba-aý
harorat — temperatura
haydamoq (yer) — sürmek (ýer)
hayot — durmuş
hasharot — mör-möjekler
hech kim — hiç kim
hech narsa — hiç zat
hech qachon — hiç haçan
hikmat — akylllyk, pähimlilik
hil-hil — bişen
himmatli — eli açyk, jomart, sahy
himoya qilmoq — goramak
hisoblash — hasaplamak
hol — ýagdaý
hosil — hasyl
hudud — çäk
hunar — hünär
hurmat qilmoq — hormat etmek
hush — huş, aň

I

iflos — hapa
ijodkor — dörediji, ýaradyjy
iloji boricha — mümkingadar
indamas — geplemezek, az sözli
indin — birigün
ipak qurti — ýüpek gurçugy
isitmasi chiqmoq — gyzgyny
galmak
ixcham — owadan, kaşaň, nepis,
näzik
ichimlik — içgi

K

kasal — hassa, näsag, kesel
kavshamoq — gäwşemek
kashta — keşe
kenja — kiçi, körpe
kechki ovqat — agşamky nahar
kimdir — kimdir biri
kiyik — keýik
kulrang — çal reňkli
kumush — kümüş
kundalik — gündelik
kun sayin — günsaýyn
kurtak — pyntyk
ko‘karmoq — gögermek
ko‘kat — gök ot
ko‘milmoq — gömülmek
ko‘p qavatli — köp etažly
ko‘rk — görk, gözellik
ko‘rsatmoq — görkezmek
ko‘zgu — aýna

L

lavlagi — şugundyr
laziz — süýji, tagamly
libos — egin-eşik, geýim

likopcha — tarelka
loyiha — taslama
lo'ppi — myssyk, dabaraly

M

mahsulot — önüm, haryt
majmua — toplum
makkajo'xori — mekgejöwen
ma'no — many
manzil — menzil
mamnun — hoşal,razy
mard — mert, edermen
maqtaoq — öwmek, magtamak
masofa — aralyk
maslahat — maslahat
mastava — tüwüli çorba
maxsus — mahsus, ýörite
maza — ýakymly, oňat
mashhur — meşhur
mehmon — myhman
mehmonxona — myhmanhana
mehmon qilmoq — hödür etmek,
hezzetlemek
mehr — mähir, söýgi
me'mor — binagär
momiq — ýumşak
moy — ýag
muhandis — inžener
muqaddas — mukaddes
musobaqa — ýaryş
mustaqillik — garaşsyzlyk
muzlamoq — doňmak
mo'l — bol, köp

N

nafs — nebis, isleg (iýmek)
na'matak — itburun

nechanchi — näçenji
necha so'm — bahasy näçe
nimadir — nämedir bir zat
niqob — nykap
nishonlash — bellemek
nonushta — ertirlik nahar
nok — armyt
novvoy — çörekçi, nanbaý

O

obdan — tutuşlaýyn
odil — adalatly
oldin — ilki, ilki bilen
oqko'ngil — göwnaçyk
orasta — arassa, päkize
orqasida — zynda
ovqat, ovqatlanmoq — iýmek,
naharlanmak
og'ir — agyr
og'rimoq — agyrmak, kesellemek
oshpaz — aşpez

P

parvarish qilmoq — ideg etmek,
seretmek
paxtazor — pagta meýdany
paydo bo'lmoq — peýda bolmak
pirillamoq — uçup-gonup ýörmek,
ganat kakmak
podsho — patyşa
poliz — mellek, bakja, bossan
posbon — garawul, goragçy
po'stin — possun

Q

qad ko'tarmoq — dikelmek, ösmek
qadimiy — gadymy
qadrdon — gadyrdan

qafas — kapasa
qaldirg'och — garlawaç
qalin kiyinmoq — galyñ
geýinmek
qaltiramoq — sandyramak,
titremek
qariya — garry, goja
qayerda — nirede
qayerga — nirä
qaynatma — gaýnadylan
qizg'in — gyzgyn,
joşgunly
qoplamoq — örtmek
qorbo'ron — gar atyşmak
qovurma — gowurlan
qurilgan — gurlan
qurilish — gurluşyk
qurolli kuchlar — ýaragly
güýçler
quvlash — kowalamak
quvonch — guwanç,
şatlyk
quvvat — güýç-kuwwat
quyuq — goýy
qo'lda termoq — elde ýygmak
qo'lda yasalgan — elin iş
qo'ymoq — goýmak

R

raqam — sifr
raqs — tans
rassom — suratkeş
rioya qilmoq — berjaý etmek
rost — hakykat

S

sahifa, varaq — sahypa, list
sahro — çöl
sanalmoq — sanalmak,
hasaplanmak
salqin — salkyn
saqlamoq — saklamak,
goramak
saralamoq — seçip almak
sardor — serdar
saroy — köşk
sarg'aymoq — saralmak
sayohat — syýahat
sayramoq — saýramak (guşlar)
sayr qilmoq — seýil etmek
sayyoh — turist
sergak turmoq — ägä bolmak, häzir
bolmak
soha — sfera, çäk
soz — saz guraly
sozanda — sazanda
sport anjomlari — sport enjamy
supurmoq — süpürmek
surtmoq — çalmak, sürtmek
suyuq — suwuk
suzish — ýüzmek

T

taajjublanmoq — haýran galmak
tabiiy boylik — tebigy baýlyk
takrorlamoq — gaýtalamak
talaffuz — aýdylyşy
tan berish — ykrar etmek
tanimoq — tanamak
taqsimlamoq — paýlamak
taramoq — daramak
tarixiy obida — taryhy ýadygärlik

tasma — lenta
tasvirlash — şekillendirmek
terimchi — ýygymçy
tez aytish — çalt gepleýiş,
ýañyltmaç
tezroq — çaltrak
tikuvchi — tikiñçi
tinglamoq — diňlemek
tomir — gan damarlary
tomosha — tomaşa
tomchi — damja
topmoq — tapmak
tortib bermog — çekmek, agramyny
ölçemek
toza havo — arassa howa
toshbaqa — pyşdyl
toshqin — joşgunly
tur — görnüş
turp — turp
tuyaquş — düýeguş
tuzsiz — duzsuz, ýuwan
tushlik — nahar, günorta nahary
tushunmoq — düşünmek
to'kilmoq — dökülmek
to'r — tor

U

ustun — sütün
uy daftari — öý depderi
uzaymoq — uzalmak, süýnmek

V

varrak — batbörek
vatan — watan
vayron qilmoq — weýran etmek
voyaga yetmoq — kämilleşmek

X

xalta — halta
xartum — hortum
xayol — hyýal, arzuw
xazina — hazyna
xil-xil — dürli-dürli
xirmon — harman
xiyobon — seýil bagy, skwer
xizmat — gulluk, iş
xola — daýza
xonadon — kwartira
xotira — hatyra
xotirjamlik — asudalyk,
parahatlyk
xushmuomala — mylaýym

Y

yalpiz — narpyz
yaltiramoq — ýalpyldamak, öwşün
atmak
yaqinda — golaýda, ýakynda
yasamoq — ýasamak
yasatmoq — bezemek
yer haydamoq — yer sürmek
yerto'la — ýerzemin, ýerküme
yetim — ýetim
yetib kelmoq — ýetişmek
yigitcha — ýaş ýigit
yig'ilish — ýygnaq
yig'im-terim — hasyl ýygymy
yodda tutmoq — ýatda saklamak
yodlamoq — ýada salmak
yonida — ýanynda, golaý
yoqimli — ýakymly
yoqtirmoq — halamak, söýmek
yordamlashmoq — kömekleşmek

yorug' — ýagty
yotoqxona — ýatalga jaýy, ýatylyan
otag
yog'moq — ýagmak
(ýagyş, gar)
yog'och — tagta
yugurmoq — ylgamak
yurish — ýöremek
yurt — ýurt
yuvinish xonasi — wanna otagy
yuvmoq — ýuwmak

Z

zamonaviy — döwrebap
zar — altyn, zer
zararli — zyýanly
zina — basgançak
zumda — derrew, çalt, şol bada
zo'r — zor, güýçli

O'

o'lka — ölke
o'quv qurollari — okuw esbaplary
o'rganmoq — öwrenmek
o'rmon — tokaý
o'rtasida — arasynda
o'tirmoq — oturmak
o'xshamoq — meňzemek
o'yin — oýun
o'yin-kulgi — oýun-gülki

G'

g'alaba — ýeňiş
g'ayrat bilan — gaýrat bilen
g'olib — ýeňiji

SH

sharaf — mertebe
sharbat — şerbet
sharoit — şert
shekilli — ähtimal,
megerem
shinam — gelşikli, bezegli
shirin taom — tagamly nahar
shishirmoq — çişirmek
shod-xurram — şadyýan,
şatlykly
shon-shuhrat — şöhrat
shotut — şatut

CH

chalmoq — çalmak (saz guralyny).
chanoq — pagta gozasy
chaqqon — çakgan, düşbi
charxpalak — jykyr
chang — tozan
chang'i — lyžalar
chigit — pagta çigidi
chilla — çile
chin dildan — tüýs ýürekden
chiniqtirmoq — bişirmek
chirillamoq — jürküldemek
chiroy ochmoq — owadanlaşmak,
gözelleşmek
chumoli — garynja
cho'kmoq — gark bolmak
cho'miltirmoq — suwa düşürmek

MUNDARIJA

O‘zbekiston — Vatanim manim	4
Qadrdon maktabim	8
Bizning sinfimiz	13
Bizning uyimiz	19
Bog‘da	25
Kuzgi ishlar	32
Bozorda	39
Oshxonada	43
Kiyim do‘konida	48
Sport, sport, sport!	53
Salom, yangi yil!	57
Qish o‘yinlari	62
Kasblar	66
Kitobni asrang	70
Orasta bo‘ling	74
Yil fasllari va ob-havo	79
Bahor keldi	84
Xotin-qizlar bayrami	89
Navro‘zi olam keldi	93
Qushlar va hasharotlar	97
Oila a‘zolarining bir kuni	102
Tinchlik barqaror bo‘lsin	107
Poytaxtimiz chiroyi	111
Yozgi ta‘til	115

**ABDUROZIQ RAFIYEV,
GULNORA MUHAMMADJONOVA**

O‘ZBEK TILI

**Ta’lim turkman tilida olib boriladigan maktablarning
4- sinfi uchun darslik**

5- nashri

*„O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2013*

Muharrir *G. Nasriddinova*
Badiiy muharrir *D. Mullaaxunov*
Texnik muharrir *T. Greshnikova*
Kompyuterda sahifalovchilar: *Sh. Yo‘ldosheva*
F. Hasanova

Nashriyot litsenzyasi AI №161. 14.08.2009. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi
20.05.2013. Bichimi 70×90¹/₁₆. Kegli 12, 14 shponli. Garn. Helvetika.
Ofset bosma usulida bosildi. Ofset qog‘ozi. Shartli b. t. 9,36. Hisob-nashriyot t. 6,5.
Bosma t. 8,0. Adadi 759 nusxa. Buyurtma №

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining „O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
Toshkent—129. Navoiy ko‘chasi, 30-uy. // Toshkent, Yunusobod dahasi,
Yangishahar ko‘chasi, 1-uy. Shartnoma № 07–04–13.

**Ijaraga beriladigan darslik holatini
ko'rsatuvchi jadval**

T/r	O'quvchining ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						

Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqalar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.